

UDC: 347.2.(045)(575.1)

TADBIRKORLIK FAOLIYATI SUBYEKTLARINING MULK HUQUQI DAXLSIZLIGI

Azizov Xudoyqul Tojiyevich,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat boshqaruvi akademiyasi birinchi prorektori,
professor, yuridik fanlar nomzodi
ORCID: 0000-0001-6485-4708
e-mail: xazizov1964@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada davlat Konstitutsiyasidagi eng muhim fundamental huquq – xususiy mulk huquqi bilan bog'liq asosiy muammolar tadqiq qilinadi, xususiy mulk daxlsizligi konstitutsiyaviy tamoyilining mazmunini aniqlashga doir yondashuvlar ilgari suriladi, subyektiv huquqlar va tegishli tarmoq (fuqarolik huquqi) o'rtasida farqlanish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi va xususiy mulk huquqining eng muhim (konstitutsiyaviy) mulk obyektlariga nisbatan tartibga solish xususiyatlari tahlil qilinadi. Muallif obyektiv muqarrarlik bilan yuzaga keladigan, insonning ashyolar bilan aloqasi qonuniyligi va uning doimiy ishlashini ta'minlaydigan mulk daxlsizligining fuqarolik-huquqiy prinsipiga e'tibor qaratadi. Biroq maqolada ta'kidlanganidek, ushbu asosiy prinsipni samarali amalga oshirish uchun resurslarni adolatli taqsimlash va zamonaviy fuqarolik jamiyatining fundamental tamoyillarini tasdiqlash bilan bog'liq mulk huquqlarining ijtimoiy funksiyasini ko'rib chiqish va hisobga olish kerak. Maqsad mulk huquqlarini majburiy ravishda bekor qilish bilan bog'liq munosabatlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solish shakllarini tahlil qilish hamda mulk daxlsizligi prinsipini samarali amalga oshirish va uning namoyon bo'lishining moddiy va ijtimoiy jihatlarini hisobga olgan holda, ushbu institutni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyati erkinligini cheklash va xususiy mulk daxlsizligining buzilishi bilan bog'liq amaliy misollar keltirilib, muammoli holatlarni bartaraf etishga doir yechimlar berilgan.

Kalit so'zlar: xususiy mulk, daxlsizlik, cheklov, davlat va jamiyat ehtiyojlari, kompensatsiya.

НЕПРИКОСНОВЕННОСТЬ ПРАВА СОБСТВЕННОСТИ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Азизов Худойкул Тожиевич,
кандидат юридических наук, профессор, первый проректор
Академии государственного управления
при Президенте Республики Узбекистан

Аннотация. В статье исследуются основные проблемы, связанные с закреплением в Конституции государства важнейшего фундаментального права – права частной собственности, предлагаются подходы к выявлению содержания конституционного принципа неприкосновенности собственности, рассматривается вопрос о возможности разграничения субъективного права собственности и соответствующего отраслевого (гражданско-правового) права, анализируются особенности их регулирования. В центре внимания автора – гражданско-правовой принцип неприкосновенности собственности, который возникает с объективной неизбежностью и обеспечивает как законность связи лица с вещью, так и непрерывное ее функционирование. Однако, как подчеркивается в статье, для эффективной реализации данного ключевого принципа необходимо видеть и учитывать социальную функцию

права собственности, связанную со справедливым распределением ресурсов и утверждением духовных начал современного гражданского общества. Цель – проследить закономерности гражданско-правового регулирования отношений, связанных с принудительным прекращением права собственности, выработать научно-обоснованные рекомендации по совершенствованию данного института с целью эффективной реализации принципа неприкосновенности собственности с учетом как вещественного, так и социального аспектов его проявления. Также приведены практические примеры, связанные с ограничением свободы предпринимательской деятельности и нарушением неприкосновенности частной собственности, даны решения по устранению проблемных ситуаций.

Ключевые слова: частная собственность, неприкосновенность, ограничения, государственные и общественные нужды, компенсация.

INVIOABILITY OF THE RIGHT OF OWNERSHIP OF SUBJECTS OF BUSINESS ACTIVITY

Azizov Khudoykul Tozhievich,

First Vice-Rector of the Academy of Public Administration
under the President of the Republic of Uzbekistan,
PhD in Law, Professor

Abstract. The article examines the main problems associated with the consolidation of the most important fundamental right in the constitution of the state – the right of private property, suggests approaches to identifying the content of the constitutional principle of inviolability of property, considers the possibility of distinguishing between subjective property rights and the corresponding sectoral (civil law) law, analyzes the features of regulation of private property rights in relation to the most important (constitutional) property objects. The author focuses on the civil law principle of inviolability of property, which arises with objective inevitability and ensures both the legality of a person's connection with a thing and its continuous functioning. However, as the article emphasizes, for the effective implementation of this key principle, it is necessary to see and take into account the social function of property rights associated with the fair distribution of resources and the affirmation of the spiritual principles of modern civil society. Objective: to trace the patterns of civil law regulation of relations related to the forced termination of property right; to develop scientifically-based recommendations for improving this institution in order to effectively implement the principle of inviolability of property and taking into account both the material and social aspects of its manifestation. Also practical examples related to the restriction of freedom of entrepreneurial activity and violation of the inviolability of private property, solutions to eliminate problematic situations are given.

Keywords: private property, inviolability, restriction, public and community needs, compensation.

Kirish

Maqolada mamlakatimizda mulk daxlsizligining ta'minlanishi, uning tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishga ta'siriga oid mavjud holat tahlil qilindi. *Mulk – O'zbekiston iqtisodiyotining asosini tashkil etadi.* Shu munosabat bilan iqtisodiy faoliyat va tadbirkorlik bilan shug'ullanish erkinligi, barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishi *qonun bilan kafolatlangan.*

Mulk huquqi – bu shaxsning o'ziga qarashli mol-mulkka o'z xohishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek, o'zining mulk huquqi, kim tomonidan bo'lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqidan iboratdir. Mulk huquqi muddatsizdir. Mustaqillik e'lon qilinidan oldin qabul qilingan va hozirgacha o'z kuchini yo'qotmagan O'zbekiston Respublikasining "Mulkchilik to'g'risida"gi Qonunning 1-mod-

dasida mulkiy huquq tan olinishi va qonun bilan muhofaza qilinishi belgilangan edi. Yurtimizda mulk huquqining himoya qilinishi va uning normativ asoslarini takomillashtirib borish huquqiy islohotlardagi *dolzarb* masalalardan biri hisoblanadi.

Xususiy mulk daxlsizligiga doir turli *yondashuvlar* mavjud. Xususiy mulk daxlsizligi deganda, tashqaridan bo'ladigan tajovuzlardan himoyalaniş holati, mulkdorning irodasiga zid bo'lgan har qanday harakatlarni amalga oshirish uchun qonun bilan belgilangan taqiq tushuniladi. Daxlsizlik shaxs erkinligi, uning mustaqilligi, o'z taqdirini o'zi belgilash kafolati sifatida ham qaraladi, chunki xususiy mulksiz jamiyat rivojlana olmaydi. V.V. Goshulyak yozadiki, xususiy mulk qonun, ayniqsa, Konstitutsiya bilan himoya qilinishi lozim [1, 72-b.]. O.E. Kutafin daxlsizlik huquqi daxlsizlik vositachiligining huquqiy shaklidir, deb to'g'ri ta'kidlaydi [2, 245-b.]. Shunga o'xshash fikrni V.A. Patyulin ham bayon qiladi: "... daxlsizlik faktiy holat sifatida aniq ijtimoiy munosabatlar va huquqiy shakllarning birligida paydo bo'ladi" [3, 13-b.].

Bugungi kunda mulk daxlsizligining huquqiy jihatdan muhofaza etilishiga oid qonunchilik bazasi yetarli darajada shakllantirilgan.

Material va metodlar

Xususiy mulk huquqini tartibga solishga doir yondashuvlar huquqiy tartibga solish mexanizmlarini aniqlash va ularni takomillashtirishdan iborat. Huquqiy tahlil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (36-, 53-, 54-moddalar), Fuqarolik va Yer kodekslari, "Mulkchilik to'g'risida"gi, "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi, "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida"gi, "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi va boshqa qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining o'nlab farmon va qarorlari hamda boshqa ko'plab qonunosti hujjatlar bilan tartibga solingan munosabatlarni o'z ichiga oladi.

Mavzuning batafsil mazmunini ochib berishda 2018-2019-yillarda Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hamda boshqa organlar tomonidan e'lon qilingan hisobot va ma'lumotlardan foydalanildi.

Qo'llanilgan metodlar sifatida qiyosiy, induksiya va deduksiya metodlarini ko'rsatish mumkin. Jumladan, xususiy mulk daxlsizligini tartibga solishga doir normativ hujjatlar o'zaro taqqoslandi, milliy va xorijiy olimlar fikrlari tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari

Ilmiy xulosalar va takliflar xususiy mulk daxlsizligi sohasida yuridik fan, yuridik ta'lim, qonun ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot obyektni tavsiflovchi asosiy ko'rsatkich statistik ma'lumotlar bilan asoslanadi. Xususan, sudlarga investitsiya kiritish sharti bilan tuzilgan shartnomalarni bekor qilish yoki haqiqiy emas deb topish bo'yicha jami 280 ta da'vo arizalari kiritilgan. Kiritilgan da'volarning 140 tasi qanoatlantirilgan, 76 tasi rad etilgan, 64 tasi bo'yicha da'vo ko'rmasdan qoldirilgan yoki ish yuritish tugatilgan.

Olib borilgan ilmiy izlanishning *samaradorligi va haqqoniyligi tahlili* amaldagi O'zbekiston Respublikasining "Mulkchilik to'g'risida"gi, "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi, "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida"gi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xususiy mulk daxlsizligi uchun muhim burilish bo'lishiga xizmat qilgan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasiga tayanilgan.

Tadqiqot natijalari tahlili

Xususiy mulk daxlsizligini tartibga solishga doir islohotlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (36-, 53-, 54-moddalar), Fuqarolik va Yer kodekslari, "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi va boshqa qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining o'nlab farmon va qarorlari

hamda boshqa ko'plab qonunosti hujjatlar bilan chambarchas bog'liq.

"Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida tadbirkorlik faoliyati subyektlari erkinligini ta'minlash va ularning mulk huquqi daxlsizligini kafolatlash maqsadida bir qator huquqiy normalar keltirilgan. Xususan, tadbirkorlik faoliyati subyektlari barcha ishlab chiqarish xarajatlari o'rnini qoplab, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan keyin qolgan daromad (foyda)ni erkin tasarruf etishi mumkin. Tadbirkorlik faoliyati subyekti mulk huquqi asosida o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkka nisbatan qonunga zid bo'lmagan har qanday harakatlarni bajarishga haqli. Bunda tadbirkorlik faoliyati subyekti o'z mulkdorlik huquqlarini amalga oshirishi boshqa shaxslarning huquqlarini buzmasligi va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga putur yetkazmasligi kerak. Tadbirkorlik faoliyati subyekti qonunda nazarda tutilgan hollarda, shartlarda va doirada boshqa shaxslar uning mol-mulkidan cheklangan tarzda foydalanishiga yo'l qo'yishi shart.

Mulk huquqi buzilishining oldini olishga qaratilgan *ma'muriy va jinoiy javobgarlik* choralari belgilangan bo'lishiga qaramasdan, sohada *quyidagi muammolar mavjud*:

1. Qonunda belgilangan asoslar bo'lishiga qaramasdan, uni *aylanib o'tish* yoki qonun talablaridan chetga chiqmagan holda, tadbirkorlar zimmasiga ortiqcha shartlar qo'yish hollari mavjud.

Jumladan, investitsiya kiritish sharti bilan davlat mulki tadbirkorlik subyektlariga berilganda, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan tadbirkor uchun o'ta noqulay shartlarda shartnomalar tuzish holatlari uchramoqda.

Keyinchalik esa arzimagan shartlarni (jumladan, *hisobotni vaqtida topshirmaganlik, hisobotni hududiy boshqarmaga topshirganlik* va h. k.) bajarmaganlik bahonasi bilan shartnomani bekor qilish holatlari kuzatiladi.

2. "Mulkdorlar tomonidan mulkdan samarali foydalanilmayotganligi, obyektida qurilish ishlari tugallanmaganligi va boshqa bahonalar bilan *mulkni olib qo'yish bilan bog'liq amaliyot* davlatning investitsiyalarni rag'batlantirishga oid siyosatiga *putur yetkazmoqda*.

Investorlar va xususiylashtirilgan obyektlar egalari qay darajada "*yaxshi*" yoki "*yomon*" bo'lmasin, ularning barchasi soliq to'lovchilar hisoblanadi va agar ular mulkni egallash paytida investitsiya majburiyatini olmagan bo'lsa, sabab qanday bo'lishidan qat'i nazar, investitsiya kiritish shartlarini *keyinchalik o'zgartirish huquqqa xilofdir*. G.A. Gadjiyev barcha mulkdorlarning xususiy mulk daxlsizligi bir xil ta'minlanishi kerakligini ta'kidlaydi [4, 18-b.].

1995-yilda "A" mebel fabrikasi *xususiylashtirilgan bo'lib, uning natijalarini* mulkdan samarali foydalanilmaganligi uchun turli xildagi arzimagan bahonalar bilan *qayta ko'rib chiqish bo'yicha tashabbus ko'rsatilganligi* davlatning xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash bo'yicha siyosatiga tubdan qarshidir. Bu kabi amaliyotlar *investitsiyalar muhofazasi kafili hisoblangan davlat nufuziga putur yetkazadi*.

Islahotlar davrida davlatning iqtisodiyotni samarali va tezkorlik bilan boshqarish, o'z zimmasiga hech qanday majburiyat olmagan holda, mulkni qayta taqsimlashdan manfaatdorlik vujudga kelishi mumkin.

Biroq, ikkinchi tarafdin, qonun ustuvorligi prinsipining o'zgarmasligini namoyish etish barchasidan muhim sanaladi.

Bunga Buyuk Britaniyani yaqqol misol sifatida keltirish mumkin. Buyuk Britaniya sudlari yuz yillar davomida har qanday holatda qonun ustuvorligini ta'minlab, *mamlakatning investitsiya uchun jozibadorligini saqlab kelmoqda*.

3. Joylarda hokimlar *kompensatsiya to'lovlarini to'lash uchun yetarli mablag'larga ega bo'lmasdan turib*, mulkni davlat yoki jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish amaliyotini to'xtatish lozim.

Huquqiy adabiyotlarda «cheklovlar» atamasi bo'yicha yagona yondashuv mavjud emas [5, 208-209-b.]. Ba'zilarining fikricha, mulk huquqini cheklash uning mazmunidan muayyan vakolatlarni olib qo'yishdan iborat [6, 81-82-b.]. Boshqalar esa cheklanadigan hokimiyat mulk huquqi mazmunidan chiqarib tashlanmasligini ta'kidlaydi. Mulkdor cheklangan subyektiv huquqni faqat cheklov ostida imkon qadar amalga oshirishi mumkin [7, 69-70-b.]. Shubhasiz, ikkinchi nuqtai nazar ishonchliroq, chunki huquqning cheklanishi mulkiy huquqlarni amalga oshirishdagi muayyan qiyinchilik va to'siqlarni ifodalaydi. V.P. Kamishanskiy haqli ravishda cheklovlar mulk huquqi mazmunidan muayyan vakolatlarni chiqarib tashlamaydi, balki subyektiv huquqlarni amalga oshirishda mulkdorning imkoniyatlarini kamaytiradi, deb hisoblaydi. Ular mulk huquqiga xos bo'lib, undan tashqariga chiqa olmaydi [8, 45-b.]. Biroq mulkdor vakolatlari kengroq bo'lishi haqida ham fikrlar yo'q emas, jumladan, boshqaruv irodasi [9, 146-b.], begona aralashuvni bartaraf etish huquqi [10, 747-b.]. va boshqalar [11, 107-147-b.].

Noqonuniy harakatlar, cheklovlar asosli e'tiroz va norozigarchiliklarga sabab bo'lib, kompensatsiya to'lovlarining yillar davomida undirilmasdan qolishiga olib kelmoqda. Jumladan, "B" xususiy korxonasining Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumanidagi 2 833 m²dan iborat bo'lgan binosi 2011-yilda davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilgan bo'lib, kompensatsiya to'lovlari bugunga qadar to'lanmagan.

Barcha rivojlangan xorijiy davlatlarda mulkni faqat va faqat davlat yoki jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish mumkinligi va unga adolatli kompensatsiya to'lovlarini o'z vaqtida to'lash tartibi amal qiladi. Bundan tashqari, kompensatsiya to'lovlari uchun mulk qiymatini aniqlash tartibi Parlament tomonidan qonun bilan belgilangan (bizda esa qonunosti hujjati asosida belgilanadi). Jumladan, Biznes-ombudsmanga tadbirkor-

lik subyektlaridan 2019-2020-yillar davomida yer maydonining olib qo'yilishi va bino buzilishi bilan bog'liq 446 ta murojaat kelib tushgan.

Kelib tushgan murojaatlar tahlil etilganda, 231 ta holatda tadbirkorlarning 8 679 ga yer maydonlari davlat va jamoat ehtiyojlari uchun deb olib qo'yilib, shundan 5 068,4 ga yer maydonlari o'rniga teng miqdorda yer uchastkalari ajratilmagan. Masalan, Toshkent shahridagi "V" korxonasiga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan Mirobod tumanida joylashgan 10 601 kv. m yer maydonida mavjud bo'lgan umumiy foydalanish maydoni 6 019 kv. m ko'chmas mulki davlat va jamoat ehtiyoji uchun kompensatsiya berilmasdan buzilgan.

Toshkent shahar ma'muriy sudining 2018-yil 13-iyundagi qarori bilan Toshkent shahar hokimiyati zimmasiga korxona ko'chmas mulki va yer maydoniga teng qiymatda kompensatsiya berish majburiyati yuklatilgan bo'lsa-da, sud qarorining ijrosi bajarilmasdan kelmoqda.

Shuningdek, 215 ta holatda tadbirkorlarning 103,4 mlrd so'mlik mol-mulklari buzilgan bo'lib, shundan 48 mlrd so'mlik mulklari uchun kompensatsiya to'lovlarining to'lanishi oxiriga yetmagan.

Misol uchun, Toshkent shahri Yashnobod tumanidagi "G" MChJga mulk asosida tegishli bo'lgan, qurilishi tugallanmagan (80 % bitgan), dori-darmon ishlab chiqarishga mo'ljallangan bino-inshootlar sport kompleksi qurish maqsadida shahar hokimining 2017-yil 22-sentabrdagi 1289-qaroriga asosan buzilgan, kompensatsiya to'lovlari esa to'lanmagan.

Iqtisodiy sudning 2018-yil 5-oktabrdagi hal qiluv qaroriga asosan, Toshkent shahar hokimligidan jamiyat foydasiga 3,0 mlrd so'm undirish belgilangan bo'lib, MIB tomonidan 2,4 mlrd so'm undirilmagan.

Oqibatda tadbirkor faoliyatini yo'lga qo'ya olmagan va qurilish uchun bankdan olgan 2,0 mlrd so'm kredit to'lovlarini to'lashda muammolar kelib chiqqan.

Bunday holatlar bo'yicha Biznes-ombudsman tomonidan tadbirkorlar huquq manfaatlarini himoya qilish yuzasidan *114 ta* ta'sir choralari qo'llanilib, *5 nafar* mas'ul shaxslar intizomiy javobgarlikka tortilgan, *11 ta* noqonuniy qaror va hujjatlar bekor qilingan hamda *2 ming ga yer maydoni* qaytarilishiga erishilgan.

Yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha sudlarga kiritilgan *35,1 mlrd* so'mlik da'vo arizalari tadbirkorlar foydasiga hal etilgan, shuningdek, *9 ta* noqonuniy qaror haqiqiy emas deb topilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xususiy mulk huquqini himoya qilish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish yuzasidan quyidagi takliflarni bildirish mumkin.

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga quyidagicha o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish:

- JKning amaldagi 173-moddasi (Mulkn qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish)ning 3-qismiga "juda ko'p miqdorda" zarar yetkazganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi band kiritish (*hozirda "ko'p miqdorda" zarar (111 mln) yetkazganlik uchun javobgarlik belgilangan va agar undan bir necha baravar ko'p miqdorda zarar yetkazgan taqdirda ham ushbu band bilan javobgarlikka tortiladi va yengil jazo tayinlanadi*);

- JKning amaldagi 173-moddasi (Mulkn qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish)da javobgarlik choralarini kuchaytirish (*hozirda modda uch qismdan iborat va eng og'ir jazo 3 yildan 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish belgilangan*);

- JKga Mulk huquqining har qanday ko'rinishda buzilishiga yo'l qo'ygan mansabdor shaxslarga nisbatan jinoiy javobgarlik belgilash;

- bunda kompensatsiya to'lovlarini to'lash uchun yetarli mablag' yoki tayyorgarlikka (*jumladan, olib qo'yilayotgan yer maydonlari o'rniga teng miqdorda yer uchastkalarini oldindan xaxira qilib qo'ymaslik*) ega bo'lmasdan turib, mulkni davlat yoki jamoat ehtiyojlari

uchun olib qo'yganlik uchun alohida band kiritish.

Ikkinchidan, tadbirkorlik subyekti yoki mulkdorga yetkazilgan moddiy zararni davlat budjetidan emas, balki mulkni noqonuniy ravishda olib qo'yish yoki buzish haqida ko'rsatma bergan (jumladan, og'zaki) yoki qaror chiqargan mansabdor shaxsning o'zidan va topshiriq yoki qaror qonuniy asosga ega emasligini bila turib, mulkning olib qo'yilishi yoki buzilishida ishtirok etgan shaxslardan undirish tartibini belgilash.

Bunda ushbu shaxslarda kompensatsiya uchun yetarli mablag' mavjud bo'lmagan taqdirda, ikki oy muddat ichida to'lovni budjet hisobidan amalga oshirgan holda, keyinchalik regress tartibida ushbu shaxslardan budjet foydasiga undirish mexanizmini joriy etish.

Uchinchidan, sudlarda xolislikni ta'minlash, davlat organlari taraf sifatida ishtirok etayotgan investitsiya nizolari va mulk huquqining buzilishiga oid ishlarda sudlarga tazyiqlarning oldini olish maqsadida:

- ushbu toifadagi nizolar va ilg'or xalqaro tajribani inobatga olgan holda, tadbirkorlik subyekti yoki mulkdorning tanloviga ko'ra, "sud prisyajnyx" instituti tamoyillariga rioya qilgan holda ko'rish amaliyotini joriy etish;

- bunda xolislikni ta'minlash maqsadida maslahatchilarni tanlash jarayonini avtomatik ravishda va ishni ko'rishdan bevosita oldin amalga oshirish hamda bunda taraflar, jumladan, davlat organlari va tadbirkorlik subyekti yoki mulkdor ishtirokini to'liq cheklash;

- ishni "uzluksiz ko'rish" tartibini belgilash;

- butun sud jarayoni, jumladan, maslahatxonaga kirish-chiqish (maslahatxona emas) joylarini *majburiy ravishda videotasvirga olish*, shuningdek, *onlayn rejimda* namoyish qilib borish amaliyotini joriy etish;

- sud maslahatchilariga har qanday ko'rinishda ta'sir o'tkazganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilash;

– *sud maslahatchilari o'zlariga nisbatan* har qanday ko'rinishda ta'sir o'tkazilganlik haqida *o'z vaqtida sud, taraflar va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar bermaganlik* uchun jinoiy javobgarlik belgilash.

Shuni ta'kidlash o'rinliki, milliy boylik belgisi yer va boshqa tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqining barcha shakllari uchun qo'llaniladi va bu sud amaliyotida inobatga olinishi lozim. Xususiylar va umum-milliy manfaatlar to'qnashganda, nizo ikkinchisining foydasiga hal qilinishi kerak [12, 21-b.]. L.D. Voyevodin xususiylar mulkining fuqarolik huquqi xususiyatlarini "mutlaq subyektiv huquq" sifatida kengaytirishga urinishlarni tanqid qiladi [13, 101-b.]. Mulk huquqi huquqiy layoqatning elementi bo'lib, uni olimlar subyektiv huquq deb tan olmaydilar, ikkinchidan, mulk huquqi subyektiv huquq emas, balki majburiyat bilan ta'minlanmagan davlatning manfaatidir [14, 63-b.].

To'rtinchidan, mulk huquqi bekor qilinganda, *olib qo'yilayotgan mol-mulkning qiymatini aniqlash* tartibini "qonun hujjatlari" bilan emas, balki faqat "qonun"da belgilashni nazarda tutuvchi o'zgartirishni Fuqarolik kodeksining 205-moddasiga kiritish.

Amaldagi tahrirda havola qiluvchi norma mavjudligi sababli mol-mulkning qiymatini aniqlash masalasida qonunosti hujjatlarini istalgancha qabul qilish uchun keng yo'l ochiladi, ularga ko'ra mol-mulkning haqiqiy qiymati ancha pasayib ketishi mumkin.

Mulk huquqining asosiy prinsiplari va mazmunidan kelib chiqib, *boshqacha qoida faqat qonun bilan* belgilanishi mumkinligini nazarda tutgan holda, havola qiluvchi norma ni chegaralash taklif etilmoqda.

A.V. Besshtanko xususiylar mulk huquqini cheklash usulini "shaxsiylar vakolatlarini amalga oshirish yo'llarini qisqartirish" deb ataydi [15, 8-b.]. Adabiyotlarda mulkka nisbatan huquqiy cheklovlarni o'rganish konstitutsiyaviylar huquq doirasida amalga oshirilishi

kerak, bu huquq predmeti erkin bo'lgan xatti-harakatlar sohasini belgilaydi, degan fikrni uchratish mumkin.

V.M. Malinovskaya inson va fuqarolik huquqlari hamda erkinliklarini qonuniylar cheklash konsepsiyasini ishlab chiqdi. Bu qonun bilan belgilangan cheklovni anglatadi [16, 7-b.]. Adabiyotda cheklovlar maxsus barqarorlik va barqarorlik bilan tavsiflanadi [17, 8-b.]. Xususiylar mulk huquqini cheklashni ushbu subyektiv huquqni bekor qilishdan farqlash kerak [18, 380-b.]. Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi amaliyotiga asoslanib aytish mumkinki, huquqlarni qonun bilan cheklashning quyidagi mezonlari mavjud: 1) zarurat, mutanosiblik, konstitutsiyaviylar ravishda tan olingan maqsadlarga cheklovlarning muvofiqligi; 2) adolatlilik [19] va cheklovlarning maqbulligi; 3) huquqning mohiyati va real mazmunini saqlab qolish [20]. (Xorijiy davlatlarda *mol-mulkning qiymatini aniqlash, olib qo'yilayotgan mol-mulk uchun adolatli kompensatsiya to'lash tartibini belgilash* Parlamentning mutlaq vakolati hisoblanadi).

Beshinchidan, mulk huquqi bekor qilinganda, olib qo'yilayotgan mulkning qiymatini aniqlash mezonlarini xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajriba asosida qayta ko'rib chiqish.

Masalan, AQSh Konstitutsiyasiga kiritilgan beshinchi tuzatishga asosan, "oddiy sharoitda, sotib oluvchi sotuvchiga o'zaro kelishuv asosida to'lashi mumkin bo'lgan qiymat – mulkning haqqoniy "adolatli" bozor qiymati" ekanligi tan olingan.

AQSh qonunchiligida "mulk davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilayotganligi sababli uning qiymatini to'lash bilan bog'liq xarajatni barcha soliq to'lovchilar (budjet) teng to'lashi kerak bo'lgan bo'lgan bir paytda, bu xarajat ulardan faqat bittasining, ya'ni mulkdorning zimmasiga tushishi adolatsiz holat" ekanligi belgilangan.

Ayni holatda mamlakatimizda mulki jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilib, kompen-

satsiya to'lovini olmagan mulkdorlar *adolatsiz sharoitda qolganligidan dalolat beradi*.

Oltinchidan, investitsiya kiritish sharti bilan davlat mulki realizatsiya qilishda investor tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan shartlarning aniq va qat'iy ro'yxati, shuningdek, shartnomani bekor qilish uchun asos bo'ladigan muhim shartlarni qonun bilan belgilash.

Bundan tashqari, davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan davlat mulki realizatsiya qilinganda, investorlarga qonunda

nazarda tutilmagan *qo'shimcha shartlar belgilash huquqini cheklash*.

Xulosalar

Barcha rivojlangan xorijiy davlatlarda mulkni faqat va faqat davlat yoki jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish mumkinligi va unga adolatli kompensatsiya to'lovlarini o'z vaqtida to'lash tartibi amal qiladi. Yuqorida bildirilgan takliflar qonunchilikni takomillashtirish bilan birga tadbirkorlik va xususiy mulk daxlsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Goshulyak V.V. Institut sobstvennosti v konstitutsionnom prave Rossii [The institution of property in the constitutional law of Russia]. Moscow, 2003, p. 72.
2. Kutafin O.E. Neprikosnovennost v konstitutsionnom prave Rossiyskoy Federatsii [Immunity in the constitutional law of the Russian Federation]. Moscow, Yurist, 2004, p. 245.
3. Patyulin V.A. Neprikosnovennost lichnosti kak pravovoy institut [Inviolability of the person as a legal institution]. *Sovetskoye gosudarstvo i pravo – Soviet state and law*, 1973, no. 11, p. 13.
4. Gadjiyev G.A. Konstitutsionnye osnovy sovremennogo prava sobstvennosti [Constitutional foundations of modern property rights]. *Journal of Russian Law*, 2006, no. 12, p. 18.
5. Mattei U., Suhanov Ye.A. Osnovnye polozeniya prava sobstvennosti [Basic Provisions of Ownership]. Moscow, 1999, pp. 208-209.
6. Kurdinovskiy V.I. Ob ogranicheniyah prava sobstvennosti na nedvijimoye imushchestvo po zakonu: (po russkomu pravu) [On restrictions on ownership of real estate by law: (according to Russian law)]. Odessa, 1904, pp. 81-82.
7. Kamyshanskiy V.P. Predely i ogranicheniya prava sobstvennosti [Limits and Restrictions of Ownership]. Volgograd, 2000, pp. 69-70.
8. Kamyshanskiy V.P. Konstitutsionnye ogranicheniya prava sobstvennosti [Constitutional restrictions on property rights]. *Pravovye voprosy nedvijimosti – Legal issues of real estate*, 2004, no. 2, p. 45.
9. Hess T. Ist «Nutzungseigentum» noch Eigentum? [Is “useful ownership” still property?]. PhD thesis. Marburg, 1976, p. 146.
10. Bernam U. Pravovaya sistema Soyedinennyh Shtatov Ameriki [Legal system of the United States of America]. Moscow, Novaya yustitsiya, 2006, p. 747.
11. Honore A.M. Ownership. *Oxford Essays in Jurisprudence*. Oxford, 1961, pp. 107-147.
12. Andreyev V.K. O prave chastnoy sobstvennosti v Rossii (kriticheskiy ocherk) [On the right of private property in Russia (a critical essay)]. Moscow, 2007, p. 21.
13. Voyevodin L.D. Konstitutsionnye prava i obyazannosti sovetskih grazhdan [Constitutional rights and obligations of Soviet citizens]. Moscow, 1972, p. 101.
14. Anisimov A.P., Melihov A.I. Konstitutsionno-pravovoye regulirovaniye prava chastnoy sobstvennosti na zemelnye uchastki [Constitutional and legal regulation of the right of private ownership of land]. Volgograd, 2009, p. 63.
15. Besshtanko A.V. Konstitutsionno-pravovoye osnovy chastnoy sobstvennosti v Rossiyskoy Federatsii [Constitutional and legal foundations of private property in the Russian Federation]. Abstract of PhD thesis. Yekaterinburg, 2002. - S. 8.

16. Malinovskaya V.M. Pravomernoye ogranicheniye konstitutsionnyh prav i svobod cheloveka i grajdantina v Rossiyskoy Federatsii [Lawful restriction of constitutional rights and freedoms of man and citizen in the Russian Federation]. Abstract of PhD thesis. Moscow, 2007, p. 7.

17. Kvitko A.F. Konstitutsionno-pravovye osnovy ogranicheniya prav i svobod cheloveka i grajdantina v Rossiyskoy Federatsii [Constitutional and legal foundations for restricting the rights and freedoms of man and citizen in the Russian Federation]. Abstract of PhD thesis. Moscow, 2007, p. 8.

18. Kommentariy k Konstitutsii RF [Commentary on the Constitution of the Russian Federation]. Ed. V.D. Karpovich. Moscow, 2002, p. 380.

Maslova V.I. Postanovleniye Konstitutsionnogo suda Rossiyskoy Federatsii ot 27.06.2001, № 11-P [Resolution of the Constitutional Court of the Russian Federation dated 27.06.2001, No. 11-P]. Rossiyskaya Gazeta, 2001, 4 July.

19. Determination of the Constitutional Court of the Russian Federation of December 1, 2005 No. 519-O on the refusal to accept for consideration the complaint of the citizen Golubka Sergey Alexandrovich for violation of his constitutional rights by subparagraph 1 of paragraph 1 of Article 7 of the Federal Law “On counteracting the legalization (laundering) of proceeds from crime and the financing of terrorism”. Reference legal system “Consultant Plus”.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

3 / 2022

BOSH MUHARRIR:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor,
y.f.d., dotsent

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ikrom Ergashev

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha
falsafa doktori, dotsent – bosh muharrir o'rinbosari

Mas'ul muharrir: D. Xudoynazarov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva, Sh. Yusupova

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

E-mail: tn.tdyu@mail.ru

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 19.07.2022-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 23,28 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma raqami: 47.

TDYU tipografiyasida chop etildi.